



HOKIMIYAT TUSHUNCHASI VA UNING SIYOSIY TIZIMLARDAGI O'RNI

Jasmina RUSTAMOVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola hokimiyat tushunchasi nazariyalarini yaratgan Michel Fuko va Sharl Lui Monteskyening siyosiy hokimiyat va uning siyosiy tizimlardagi o'rnnini taqqoslaydi. Monteskye o'zining "Qonunlarning ruhi" asarida hokimiyatni uch bo'linishga ajratish zarurligini va bu orqali erkinlikni saqlashni ta'kidlagan. U hokimiyatning bo'linishi faqat jamiyatni adolatli va barqaror qilish uchun emas, balki fuqarolarning erkinligini himoya qilish uchun ham kerakligini nazarda tutgan. Fuko esa hokimiyatni faqat qonunlar yoki davlat orqali emas, balki ijtimoiy munosabatlar va institutlar orqali ham amalga oshirish mumkinligini ko'rsatgan. U hokimiyatning mikro darajadagi shakllanishiga, ya'ni odamlar o'rtasidagi muntazam va kichik ijtimoiy aloqalarda qanday qilib amalga oshishiga diqqat qaratgan. Maqolada bu ikki olimning siyosiy tizimlar va hokimiyat haqidagi qarashlari solishtirilgan bo'lib, ular o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar tahlil qilinadi. Maqola, hokimiyatning siyosiy tizimdagi o'rnnini va uning jamiyatdagi erkinlikka ta'sirini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: hokimiyat bo'linish prinsiplari, mikro hokimiyatlar, panoptikon loyihasi, despotizm, avtoritarizm, kongress, veto, impeachment, disiplinar jamiyat.

Abstract: This article compares the theories of power and its role in political systems as developed by Michel Foucault and Charles Louis Montesquieu. In his work "The Spirit of the Laws," Montesquieu emphasized the necessity of dividing



power into three branches, thereby preserving freedom. He argued that the separation of powers is essential not only for creating a just and stable society but also for protecting citizens' freedoms. Foucault, on the other hand, demonstrated that power can be exercised not only through laws or the state but also through social relationships and institutions. He focused on the formation of power at the micro level, that is, how it is realized in regular and small social contacts between people. The article compares the views of these two scholars on political systems and power, analyzing the differences and similarities between them. The article helps to better understand the role of power in the political system and its influence on freedom in society.

Keywords: principles of separation of powers, micro-governments, panopticon project, despotism, authoritarianism, congress, veto, impeachment, disciplinary society

Kirish

Hokimiyat tushunchasiga doir dastlabki qarashlar Qadimgi Yunonistonda shakllangan bo'lib, hozirgi davrga qadar bir qancha siyosatchi va sotsiologlar tomonidan o'r ganilib kelinmoqda. Hokimiyat va uning timsollari, tarix davomida siyosiy tizimlarning asosiy strukturalaridan biri bo'lib kelgan. Bu timsollar, davlat hokimiyatining maqsad va vositalarini ifodalaydi va ularga qarab jamiyatda qanday boshqaruvin mehanizmlari mavjudligini tushunish mumkin. Monteskye va Fuko kabi faylasuflar hokimiyat va siyosat haqidagi qarashlari bilan bu jarayonni chuqr tahlil qilishga uringan. Monteskyening "Hokimiyatning bo'linishi" nazariyasi, hukumatning barcha tarmoqlari bir-biridan mustaqil bo'lishi kerakligini ta'kidlasa, Fuko hokimiyatni faqat davlat apparatiga emas, balki ijtimoiy strukturaga, bilim va madaniyatga tarqatilgan kuch sifatida ko'rgan. Shunday qilib, hokimiyat timsollarining siyosiy tizimlarda o'rni, ular qanday shakllanadi va qanday ishlaydi degan savollarni o'r ganish bugungi kunda juda muhim. Shu o'rinda savol tug'iladi



‘Hokimiyat tushunchasi siyosiy tizimlarda qanday o’rin tutadi?’ ‘Fuko va Monteskyening o’rtasidagi farq qanday?’. Ushbu maqolada, yuqoridagi savollarga javob beriladi va Fuko bilan Monteskyening qarashlari asosida hokimiyat timsollarining siyosiy tizimlarda qanday ifodalanishi va ular o’rtasidagi farq va o’xshashliklar tahlil qilinadi.

1. Monteskyening ‘Hokimiyatning bo’linish nazariyasি’

Monteskye siyosiy nazariyasidagi eng asosiy g'oyalaridan biri bu hokimiyatning bo’linishi tamoyilidir. U davlat boshqaruvida despotizm va erkinlikni saqlashning eng yaxshi usuli deb hokimiyatlar o’rtasidagi bo’linishni ko’rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, davlat hokimiyati uch mustaqil qismga ajratilishi kerak: ijroiya (hukumat), qonunchilik (parlament), va sud. Bu uch hokimiyatning bo’linishini quyidagicha tavsiflaydi:

Qonun chiqaruvchi hokimiyat: parlament yoki xalq tomonidan saylangan organ;

Ijro etuvchi hokimiyat: hukumat yoki monarx tomonidan amalga oshiriladigan ijro hokimiyati;

Sud hokimiyati: qonunlarning ijrosini nazorat qiladi va nizolarni hal qiladi.

Monteskye bu hokimiyatlarning bir joyga to'planishi erkinlik uchun xavf ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bu uchala hokimiyat mustaqil bo'lishi kerak. Aks holda davlat despotizmga aylanadi va fuqarolar erkinligi yo'qoladi. Agar sud hokimiyati ijro hokimiyati bilan birlashsa, u holda sud hakami sitamgarga aylanishiga imkoniyat tug'iladi. Agar ijro hokimiyati qonun chiqaruvchi yig'inni tarqatish huquqiga ega bo'lmasa, u holda qonun chiqaruvchi hokimiyat hokimi mutlaqqa aylanib, qolgan barcha hokimiyatlarni yo'q qiladi. AQSh konstitutsiyasi



Monteskeyening nazariyasidan ilhomlangan bo‘lib, davlat hokimiyatining uch tarmoqda mustaqil faoliyat yuritishini kafolatlaydi:

1. Qonunchilik tarmog‘i (Kongress)

- Vakillar palatasi va Senatdan iborat.
- Qonunlar qabul qiladi, byudjetni tasdiqlaydi, prezident faoliyatini nazorat qiladi.
- Prezidentni lavozimidan chetlatish (impeachment) huquqiga ega.

2. Ijroiya tarmoq (Prezident)

- Prezident qonunlarni amalga oshiradi, davlatni boshqaradi, armiyaga boshchilik qiladi.
- Qonunchilik tarmog‘i qabul qilgan qonunlarni rad etish (veto) huquqiga ega.

3. Sud tarmog‘i (Oliy sud va federal sudlar)

- Qonunlarning konstitutsiyaga mos kelishini tekshiradi.
- Prezident va Kongress qarorlarini bekor qilish huquqiga ega (agar ular konstitutsiyaga zid bo‘lsa).

2. Mishel Fuko va hokimiyatning intizomiy modeli nazariyasi

Fukoga ko‘ra, hokimiyat faqat davlat yoki qonun qoidalarigagina tegishli bo‘lmagan, balki jamiyatning barcha qatlamlariga singib ketgan murakkab “mikro-hokimiyat”lar tarmog‘i sifatida namoyon bo‘ladi. U hokimiyatni faqat zo‘ravonlik yoki kuch ishlatalishga tenglashtiriladigan eski qarashlardan voz kechib, uning o‘rniga hokimiyatni kundalik intizomiy amaliyotlar, nazorat va kuzatuv orqali qanday amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Fuko hokimiyatni tarqoqlashgan, barcha



joyga singib ketgan narsa deb biladi: “Hokimiyat hamma joyda mavjud – u hammani qamrab olgani uchun emas, balki hamma yerdan kelib chiqgani uchun” deb yozadi u. Ya’ni, hokimiyat na aniq bir institut, na shaxs qo’lidagi boylik; aksincha, jamiyatdagi murakkab strategik vaziyatlar majmui sifatida qaraladi. Intizomiy model nafaqat ijtimoiy institutlar miqyosida, balki kengroq ma’noda davlat hokimiyati va siyosiy boshqaruv texnologiyasi sifatida ham ahamiyatga ega. Siyosiy nuqtai nazardan, Fuko hokimiyatni jamiyatni boshqarishning yangi usuli sifatida ko’rsatadi – uni ba’zan “hukumatlilik” (fransuzcha *gouvernementalité*, inglizcha *governmentality*) deb ataydi. Bu tushuncha davlat hokimiyatining faqat qonun chiqarish yoki zo’rlik bilan majburiy choralar ko’rish bilangina emas, balki aholini boshqarish san’ati bilan shug‘ullanishini bildiradi. Intizomiy hokimiyat aynan shu boshqaruv san’atining bir qismi: davlat va ijtimoiy tuzilmalar fuqarolarning xulq-atvorini me’yorlashtirish (normallashtirish), kuzatish va tarbiyalash orqali ijtimoiy tartibni saqlashga intiladi. Bunga qamoqxona – “panoptikon” tushunchasi orqali nazoratni misol qilib keltirish mumkin

Fuko fikri:

Qamoqxonadagi "panoptikon" arxitekturasi hokimiyat qanday ishlashini tushunish uchun mukammal modeldir.

- Panoptikon — aylana shaklida qurilgan bino bo‘lib, markazda kuzatuvchi, atrofida esa kameralar joylashgan.
- Mahbuslar doimo nazorat ostida ekanini his qiladi, lekin ularni qachon kuzatishayotganini bilmaydi.
- Shuning uchun ular **har doim o‘zini nazorat qiladi**, hatto hech kim qarab turmasa ham.

→ **Fuko bu modelni butun jamiyatga tatbiq etadi:** odamlar maktabda, kasalxonada, ishxonada – nazorat bor deb o‘ylab, o‘zini o‘zi boshqaradi.



Fuko va Monteskye qarashlaridagi farqlar

Monteskyening yondashuvi: Monteskye siyosiy tizimlarda institutlarning bo‘linishi va hokimiyatning balansi asosida kuchlar o‘rtasidagi o‘zaro nazoratni ko‘rgan. U hokimiyatni aniq va mustahkam bo‘linishi kerak deb hisoblagan. Bir hokimiyatning qo‘lida barcha vakolatlarning to‘planib qolishi uning kuchayib ketishiga va boshqalari ustidan nazorat o‘rnatishiga olib keladi. Uning nazariyasida hokimiyat markazlashgan, lekin uch tarmoqqa bo‘linadi. Nazariyasining asosiy maqsadi avtoritarizmning oldini olish hisoblanadi.

Fuko yondashuvi: Fuko esa hokimiyatning biror bir markazda to‘planishiga qarshi chiqadi. Uning fikriga ko‘ra, hokimiyat jamiyatning har bir sohasida joylashgan bo‘lib, bilish va madaniyat orqali jamiyatni shakllantiradi va boshqaradi. U hokimiyatni "o‘z-o‘zini nazorat qilish" orqali amalga oshirilgan deb ta’kidlaydi. Uning fikricha hokimiyat jamiyatni nazorat qilish va boshqarish vositasi sifatida ishlaydi. Shuningdek nazariyada hokimiyat markazlashmagan, jamiyatning barcha qatlamlariga tarqalgan bo‘lib, maqsadi hokimiyatni qanday yashirin ishlashini ko‘rsatishdir. Hokimiyat insonni o‘zi o‘zini nazorat qilishga o‘rgatadi — bu "disiplinar jamiyat" tushunchasini kirib kelishiga olib keladi.

Siyosiy tizimlarda hokimiyatning o‘rni: Fuko va Monteskyening nazariyalarida

Monteskye o‘zining “Qonunlar ruhi haqida” asarida hokimiyatni bir qo‘lda jamlash — despotizmga olib borishini ta’kidlagan. U uchun siyosiy erkinlik — bu fuqarolarning hokimiyat oldida himoyalangan holatidir. Shuning uchun, hokimiyatlar o‘zaro mustaqil va bir-birini muvozanatlaydigan bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham hokimiyat bo‘linishi prinsipi mavjud: qonunchilik (Oliy Majlis), ijroiya (Prezident va Vazirlar Mahkamasi) va sud hokimiyati mustaqil faoliyat yuritadi. Bu Monteskye ta’kidlagan prinsipni aks ettiradi. Germaniyada, Bundestag (parlament) qonun chiqaradi, Federal prezident



ramziy vakolatga ega, sud tizimi esa qonunlar konstitutsiyaga muvofiqligini baholaydi. Bu hokimiyat bo‘linishining amaliy ko‘rinishidir.

Fuko hokimiyatni "bilim", "intizom", "kuzatuv" va "normallashtirish" tushunchalari orqali tahlil qiladi. Uningcha, hokimiyat faqat yuqoridan pastga emas, balki pastdan yuqoriga ham harakatlanadi. Har bir inson jamiyatda qanday bo‘lishi kerakligini ichki hissiyotlar orqali o‘rganadi — bu ichki hokimiyat mexanizmidir.

1. Ijtimoiy tarmoqlar – bugungi kunda hokimiyatning yangi shakli sifatida xizmat qiladi. Masalan, odamlar o‘z xatti-harakatini Instagram yoki TikTok dagi tendensiyalar asosida o‘zgartiradi. Bu Fuko aytganidek, tashqi kuch emas, ijtimoiy me’yorlar orqali ongni shakllantirishdir.

2. Yuqori reytingli maktablar va universitetlar – ular orqali jamiyat intizomli, mehnatsevar, “yaxshi fuqarolar”ni tarbiyalaydi. Fuko fikricha, bu bilim orqali nazorat qilish — ya’ni hokimiyatning noan’anaviy shaklidir.

3. Sog‘liqni saqlash tizimi – kim sog‘lom, kim kasal degan tushunchalar orqali odamlar qanday yashash kerakligi bo‘yicha “normalar”ga moslashishga harakat qiladi. Bu orqali jamiyat a’zolari o‘zini ongli ravishda boshqaradi.

Xulosa

Fuko va Monteskyening hokimiyatga bo‘lgan yondashuvlari o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitlarini aks ettiradi. Monteskye hokimiyatni siyosiy institutlar doirasida ko‘rib, uni qonuniy asosda bo‘lish orqali erkinlikni saqlashni maqsad qilgan. U hokimiyatni markazlashuv xavfidan ogohlantirib, uni qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatlariga ajratish zarurligini ta’kidlagan. Fuko esa hokimiyatni faqat davlat doirasida emas, balki kundalik hayot, bilim va ijtimoiy tartibotlarda yashirin tarzda mavjud deb hisoblaydi. Uningcha, hokimiyat



markazlashgan emas, balki tarqalgan va murakkab tarmoqlarda amal qiladi. Fuko uchun hokimiyat – bu kuzatuv, intizom va normalarni shakllantirish orqali ong va xulq-atvorni boshqarish vositasi hisoblanadi. Demak, Monteskye hokimiyatni rasmiy siyosiy struktura sifatida talqin qilsa, Fuko uni ko‘rinmas, ammo ta’sirchan ijtimoiy kuch sifatida tahlil qiladi. Ularning qarashlari hokimiyat mohiyatini har tomonlama anglashda bir-birini to‘ldiradi va zamonaviy siyosiy tafakkur uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Foucault, M. (1975). *Discipline and Punish: The Birth of the Prison* (A. Sheridan, Trans.). New York: Pantheon Books.
2. Foucault, M. (1978). *The History of Sexuality, Volume 1: An Introduction* (R. Hurley, Trans.). New York: Pantheon Books.
3. Montesquieu, C. L. (1748). *The Spirit of the Laws* (A. Cohler, B. Miller, & H. Stone, Trans., 1989 ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992, 2023-yilgi tahriri bilan).
5. Karimov, I. A. (2008). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat.
6. Shodmonov, Q., & Mamarasulov, B. (2018). *Siyosatshunoslik asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
7. Lukes, S. (2005). *Power: A Radical View* (2nd ed.). London: Palgrave Macmillan.
8. Held, D. (2006). *Models of Democracy* (3rd ed.). Stanford: Stanford University Press.